

IMPORT TARKIBINI BOJXONA TO'LOVLARI BILAN TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Alimuxamedov Shuxrat Rixsibayevich

*O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti
Bojxona to'lovlari va statistikasi kafedrasi boshlig'i.*

Annotatsiya: Maqolada import tarkibini bojxona to'lovlari orqali tartibga solishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Xususan, bojxona tariflari va notarif choralar orqali milliy iqtisodiyotni himoya qilish, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda raqobatbardoshlikni oshirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, bojxona to'lovlari mexanizmlarining samaradorligini oshirish, imtiyozlar tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali import jarayonlarini shaffof va tezkor qilish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotda jahon tajribasi ham tahlil qilinib, O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Import, bojxona to'lovlari, tarif siyosatini takomillashtirish, notarif choralar, iqtisodiy himoya, raqobatbardoshlik, imtiyozlar tizimi, raqamli texnologiyalar, tashqi savdo tartibga solish.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston importi mashinalar, uskunalar va transport vositalariga qaratilgan, bu esa mamlakatni jahon bozoridagi keskin tebranishlarga qaram qiladi. Bu retsessiya sharoitida O'zbekiston iqtisodiyotining "motori" sifatida importning rolini sezilarli darajada pasaytiradi. Import sektorini rivojlantirish uchun hozirgi sharoitda importni osonlashtirish tizimini yaratish, shuningdek, tarif va tarifsiz tartibga solish choralarini o'z ichiga olgan O'zbekiston ishlab chiqaruvchisini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati katta ahamiyatga ega.

Valyuta tushumlari ustidan nazoratni amalga oshirish chorasi sifatida import operatsiyalarini qat'iy hisobga olish va tahlil qilish zarur. Bunday hisobga olish va tahlil qilish import bojlari bo'yicha to'g'ri boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun ham zarurdir.

Shuningdek, ushbu operatsiyalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish. Tashqi savdoning bojxona statistikasini shakllantirish uchun statistik monitoring ko'rsatkichlari tizimi qo'llaniladi, ularning asosiylari pul ko'rinishida hisoblangan eksport va importdir. Statistik ko'rsatkichlar eksport operatsiyalarining turli xil tahliliy tadqiqotlarini o'tkazish imkonini beradi, buning uchun bojxona organlari quyidagi statistik tahlil usullaridan foydalanishlari mumkin: umumlashtirish va guruhlash; grafik usul; indeks usuli; omil tahlili; tashqi savdo dinamikasini tahlil qilish va boshqalar.

Tashqi savdoni rivojlantirish va tartibga solish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar negizida importni tartibga solish va eksportni qo'llab-quvvatlash asosiy masala sifatida qaralmoqda. Bu vazifalarni bajarishda mamlakat tashqi savdo tarkibini o'rganish, uni tahlil qilish va tegishli qarorlar qabul qilish muhimdir.

Bugungi mamlakatlarning o'zaro integratsiyasi rivojlanib borayotgan globallashuv davrida, O'zbekiston tashqi savdo balansini iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholash va shu orqali mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir etuvchi tahdidlarni oldindan aniqlash hamda unga qarshi zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatlarning tashqi savdosi aktiv yoki passiv ekanligi, tashqi savdo aylanmasi bilan belgilanadi. Aktiv va passiv balans esa eksport va import o'rtasidagi farq bilan ifodalanadi. Shunday ekan tashqi savdo balansini baholaganda, tashqi iqtisodiy savdoni tartibga soluvchi barcha holatlar va omillar hisobga olinadi va bunda asosiy e'tibor mamlakat importining eksportga nisbatan oshib ketmasligiga qaratiladi. Shu sababli mamlakat tashqi savdosidagi import tarkibi va uni tartibga solishdagi muammolar ko'p yillar davomida olim va siyosatchilarni qiziqtirib keladigan masalalardan biri hisoblanadi. Importning mamlakat iqtisodiyoti uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan olimlarning quyidagi qarashlari va o'rganishlari mavjuddir.

Ko'pchilik mamlakatlarda iqtisodni rivojlantirish uchun eksportni ko'paytirib, importni cheklash kerak, deb hisoblaydi. Sodda qilib aytganda, kamroq sotib olib, ko'proq sotish foydali, deb hisoblashadi. Bu bir qarashda to'g'ri o'lchov. Ammo, ishlab chiqaruvchi bunday qarashdan voz kechishi kerak deb ham hisoblashadi. Buni to'g'ri tushunmaganimiz sababli, afsuski, mahalliy korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida importni tartibga solish tushunchasi "importni bo'g'ish" holatlarga aylanib qolmoqda.

Oddiy misol: tashqaridan mahsulot kiritilmaydigan ichki bozorda xorij valyutasiga bo'lgan talab kamayadi. Bu milliy valyutaning qadri oshishiga sabab bo'ladi. Deylik, bironta korxona o'z mahsulotini 1 AQSh dollari evaziga sotayotgan bo'lsa, importning cheklanishi va uning natijasida kurs tushishi, deylik, 11400 so'mdan 10000 so'mga arzonlashishi sabab o'sha mahsulot 1,4 dollar qiymatga ega bo'ladi. Bir qarashda bu — xorij valyutasining arzonlashishi, milliy mahsulotning qimmatlashishi kabi ko'rinadi. Aslida bu xalq uchun ham, ishlab chiqaruvchi uchun ham zarar. Chunki, importi cheklangan mahsulot ichki bozorda qimmatlashadi. Bu ishlab chiqaruvchining tashqi bozordan o'rin olish ishtiyoqini pasaytiradi. Ayni paytda bu imkonsiz bo'lib, tashqi bozorda o'sha mahsulot mamlakat ichkarisidagiga nisbatan arzon va sifatli bo'lishi mumkin. Mahsulot qancha qimmat bo'lsa, uni tashqi bozorda sotish shunchalik qiyinlashadi. Oqibatda xalq qimmat narxda raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot sotib olishga majbur bo'ladi.

Aksincha importning o'sishini tabiiy jarayon deb qabul qilsak, bozorda arzon mahsulot ko'payadi va xarid miqdori ham sezilarli ravishda o'sadi. Qolaversa, import hajmi eksportdan qancha ko'p bo'lsa, valyutaga bo'lgan talab oshadi va mamlakatga valyuta (kapital) oqimi shuncha ko'payadi. Bunday vaziyatda xorijiy valyutalar kursi muvozanatini bozorning o'zi belgilaydi. Importga qilingan xarajat esa eksport hajmining o'sishi bilan qoplanadi.

Xo'sh nima qilish kerak? Import hajmini oshirishdan qo'rqmay, eksport salohiyatini yaxshilash kerak ekan, buning uchun qanday yo'l tutish lozim, degan savol tug'iladi. Buning uchun, avvalo, importni cheklash emas, uni tartibga solish choralari ko'rish kerak. Demakki, bu o'z navbatida milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish kerak degani. Mamlakatimizda bu sohada bir qator islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarga energiya manbalari va mavjud xomashyolardan samarali va erkin foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Zarur infratuzilmani rivojlantirish, jumladan, temir yo'llar va avtomobil yo'llarining, elektr ta'minoti sifatleri oshirilmoqda, maqbul, imtiyozli kommunal va transport tariflari qo'llanilmoqda.

Rivojlangan davlatlarning to'lov balansini tahlil qilsak, qiziq ziddiyatga duch kelamiz. Masalan, dunyodagi ayrim davlatlarda tashqi savdo balansidagi yuqori profitsit — ushbu mamlakat mahsulotlarining jahon bozorida mashhurligini va importga bo'lgan talab pastligini bildiradi. Bunga Germaniya va Xitoy misol bo'la oladi. Ular kabi rivojlangan davlatlarda eksport import hajmidan ko'p, lekin ularda xorijiy investitsiyaga bo'lgan talab kam. Aksincha ular boshqa davlatlarga ko'proq investitsiya kiritadi. Ana shu sabab tufayli ularda import hajmi tabiiy ravishda kamaygan.

Tashqi savdo aylanmasidagi defitsit O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlat uchun qo'rqinchli hisoblanmaydi. Importni tartibga solish bizning mahsulotlarimiz raqobatdosh bo'lishiga imkon beradi. Mamlakatimiz rivoji uchun savdo balansidagi defitsitni qisqartirish yo'lida kurashish emas, balki xorijiy sarmoyaning, investitsiyalarning kirib kelishini yanada ko'paytirish lozim. Zero, xorijiy investitsiyalar bu yangi infratuzilma, yangi texnologiya, yangi mashina va uskunalarni deganidir.

So'nggi yillarda Respublikamizda tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, importni tartibga solish va bu orqali tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlashga qaratilgan islohotlar tizimli amalga oshirilib kelinmoqda. Bizga ma'lumki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va uni rivojlantirishda mamlakatimizga import qilingan tovarlar katta ahamiyat kasb etadi.

Sababi tashqi savdoning asosiy tarkibiy qismini import tovarlari tashkil etadi.

Shundan kelib chiqib import tarkibini doimiy ravishda o'rganish va import tarkibini tartibga solish usullarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi. Hozirgi kunda

mamlakatimizdagi mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib importni tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanish va mavjudlarini tartibga solish muhim hisoblanadi:

Oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan mamlakatning importga qaramligini to'g'ri baholash.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, tabiiy-iqtisodiy salohiyat, mamlakat va alohida mintaqalar aholisining to'lov qobiliyati, milliy bozorning importga qaramlik darajasi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va yer resurslaridan oqilona foydalanish, agrosanoat majmuasining rivojlanishi kabi bevosita ta'sir etuvchi jarayonlar bilan uzviy bog'liq. Shu jihatdan, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash milliy siyosatda muhim strategik ahamiyatga ega bo'lish bilan birga iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik hamda davlat mustaqilligining asosiy shartlaridan biridir. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bir tomondan, agrosanoat ishlab chiqarishini intensivlashtirish, ikkinchi tomondan, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi va aholi daromadlarini oshirish bilan bog'liq bo'lgan makroiqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun muammolar yechimini ishlab chiqishda bozor mexanizmlari bilan birgalikda, oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan mamlakatning importga qaramligini tahlil qilish va baholash bugungi kunning muhim vazifasidir.

Ayni paytda oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emas va ko'plab tadqiqotchilar "oziq-ovqat mustaqilligi", "oziq-ovqat muammosi", "oziq-ovqat ta'minoti" kabi talqinlarda o'zlarining tuzatishlari va qo'shimchalarin kiritib kelmoqdalar. Shu jihatdan, oziq-ovqat xavfsizligi nazariyasi hozirgacha to'liq yoritib berilmagan hamda uning mohiyatini tushuntirish bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud. E.V.Serovanning fikricha, oziq-ovqat xavfsizligi me'yoriy hayot tarzini o'tkazish uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholining asosiy qismini ta'minlash darajasini bildiradi. K.V.Frolov, A.V.Gordeev, O.A.Maslennikova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan oziq-ovqat xavfsizligiga quyidagicha ta'rif beriladi: mamlakat fuqarolarini hayotiy zarur va foydali ozuqa mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kerakli hajm va assortimentda o'z manbalari orqali ta'minlashdir.

A.A.Anfinogentova, O.V.Ermolaeva, N.A.Kireeva va boshqalar o'z tadqiqotlarida oziq-ovqat xavfsizligini aniqlash mumkin bo'lgan quyidagi 3 ta ierarxik darajaga e'tibor qaratadi:

- global oziq-ovqat xavfsizligi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bug'doy zaxirasi va uni ishlab chiqarish hajmi bilan izohlanadi;
- davlat darajasidagi oziq-ovqat xavfsizligi milliy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning importga nisbati, ozuqa mahsulotlari iste'molida importning ulushi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal daromad va oziq-ovqat mahsulotlari baholaridagi o'zgarishlar bilan aniqlanadi;

- mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi aholi daromadlari va oziq-ovqat iste'moli hajmi haqidagi ma'lumotlar orqali o'lchanadi.

Rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotida barqaror rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlanishini oldini olish, sanoat tarmoqlarini barpo etish hamda chet el mahsulotlariga butunlay qaram bo'lib qolmasliklari uchun import o'rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish va bunday loyihalarni, ayniqsa, hududlarimizda ko'proq amalga oshirish ustuvor yo'nalishlardan sanaladi.

Bunga sabab bizga ma'lumki, import tarkibini tartibga solishning asosiy elementi bu mamlakatdagi import hajmi ko'p bo'lgan tovarlarni mahalliyashtirish tizimi hisoblanadi. Bunda mamlakatda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan tovarlar qiymati tayyor import qilingan tovarlar qiymati bilan teng bo'lgan taqdirda ham ushbu tovarni ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyoti uchun (davlat byudjetiga tushadigan soliqlar va mehnat bozori yaratilishi hisobiga) ancha foydaliroqdir. Import o'rnini bosuvchi loyihalarni amalga oshirishda albatta, iqtisodiyotdagi tarmoqlarning rivojlanish darajasi, respublikamizda xom ashyo resurslari mavjudligi, sanoat tarmoqlarining chetdan import qilinadigan tovarlarga qanchalik bog'liqligi va ularning hajmi, shuningdek, sanoat tarmoqlari uchun ishlab chiqarishda doimiy ravishda talab etilishi, zarur infratuzilma mavjudligi hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotga, umuman iqtisodiyot tarmoqlarida talab qay darajada bo'lishi mumkinligi o'rganib boriladi. Agar mahsulot eksportga yo'naltirilsa, tashqi bozorda ham unga talab bor-yo'qligi aniqlanadi va shu asosda mahalliyashtirish loyihasi amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-martdagi "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-57-son Farmoni.
3. Karimov, B. Bojxona to'lovlari va ularning iqtisodiy mazmuni. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
4. Egamberdiyev, S. Tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona-ma'muriy tartibga solish masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Tadjibayev, A. Import tarkibini tartibga solishning iqtisodiy asoslari // "Iqtisod va moliya" jurnali. – 2023. – №4. – B. 45–52.
6. Krugman, P., Obstfeld, M. International Economics: Theory and Policy. – New York: Pearson, 2020.
7. WTO (World Trade Organization). World Trade Report 2023: Re-globalization for a secure, inclusive and sustainable future. – Geneva: WTO, 2023.